



O'ZBEKISTONDA SHAHAR HAVOSINING IFLOSLANISHI VA
PROFILAKTIK CHORA TADBIRLAR

Raximberganova Gulyor Elyor qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

raximberganovagulyor@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda shahar havosining ifloslanishining sabablari, bu ifloslanishni oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani va oshirilishi kerakligi tahlil qilinadi. Shuningdek, havo ifloslanishining inson salomatligiga salbiy ta'sirlari va bu bo'yicha statistika ma'lumotlari ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: havoning ifloslanishi, chora-tadbirlar, inson salomatligi, salbiy ta'sirlar, statistika ma'lumotlari.

Abstract. This article analyzes the causes of urban air pollution, the measures being implemented and those that need to be implemented to prevent this pollution. It also highlights the negative impact of air pollution on human health, as well as statistical data on this issue.

Keywords: air pollution, preventive measures, human health, negative impacts, statistical data.

Аннотация. В данной статье анализируются причины загрязнения городского воздуха, меры, которые реализуются и должны быть реализованы для предотвращения данного загрязнения. Также освещаются негативное влияние загрязнения воздуха на здоровье человека и статистические данные по этому вопросу.

Ключевые слова: загрязнение воздуха, меры, здоровье человека, негативные последствия, статистические данные.



Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo bo'yicha havoning ifloslanishi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda va bu holat ko'pincha shahar hududlarda uchramoqda. Atmosfera ifloslanishi bugungi kunda butun dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 7 milliondan ortiq inson aynan iflos havo sababli erta hayotdan ko'z yumadi. Bunga asosiy sabab shaharlarda yashillikning yo'qolib borishi va ularning o'rnini zavod-fabrikalar egallashi, bundan tashqari transport vositalarining, jumladan, shaxsiy avtomabillar sonining ortib borishi deb topilmoqda. Albatta, obi-havodagi keskin o'zgarishlar ham havoni qisman ifloslanishi uchun sabab bo'lishi mumkin. Havosi ko'p ifloslanadigan shaharlardan biri sifatida poytaxtimizni olib qaraydigan bo'lsak, undagi eng ko'p ifloslanish zavod-fabrikalardan paydo bo'lyapti.

Havo muhiti inson organizmining normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan muhim ekologik omillardan biridir. Atmosfera havosi asosan azot, kislorod, karbonat angidrid va boshqa gazlardan tashkil topgan bo'lib, ularning muayyan nisbatda bo'lishi tirik organizmlar hayoti uchun katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, kislorod inson organizmida kechadigan biologik jarayonlar, jumladan, nafas olish va energiya almashinuvi uchun zarur hisoblanadi. Havo muhitining gigiyenik holatini baholashda bir qator ko'rsatkichlar muhim rol o'ynadi. Ular qatoriga havoning harorati, nisbiy namligi, harakat tezligi, atmosfera bosimi va kimyoviy tarkibi kiradi. Ushbu omillar inson organizmining issiqlik almashinuvi, umumiy holati va ish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, juda yuqori yoki juda past harorat organizmning termoregulyatsiya jarayonini buzishi mumkin. Havoning yuqori namligi esa organizmning sovishini qiyinlashtirib, noqulay mikroiklim sharoitini yuzaga keltiradi. Havo ifloslanishi gigiyena nuqtai nazaridan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Atmosfera havosiga sanoat korxonalarchiqindilari, transport vositalaridan ajraladigan gazlar, chang zarralari va turlikimyoviy moddalar tushishi natijasida uning sifati yomonlashadi.



Axborotlarga ko'ra, Toshkent shahrida o'tkazilayotgan ekologik reydlar doirasida 96 ta qurilish obekti o'rganilib, havoni chang va qum bilan ifloslantirish bo'yicha talablarni buzgan 15 ta obektda qurilish ishlari vaqtincha to'xtatildi, 70 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi YHXB, Bosh prokuratura, Qurilish vazirligi, Energoinspeksiya, Qurilish inspeksiyasi, Sanitariya-epidemiologiya xizmati hamda boshqa tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ekologik reydlar davom ettirilmoqda.

Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus komissiya tuziladi. Bu prezident Shavkat Mirziyoyevning «Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida ko'zda tutilgan. Mazkur komissiya zimmasiga poytaxtda havo sifati, yashil hududlarni asrash va ko'paytirish, transportdan chiqadigan zararli moddalarni kamaytirish, sanoat korxonalarini faoliyatida ekologik talablarga rioya etilishini kuchaytirish kabi yo'nalishlarda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatiladi. Maxsus komissiyaning unga yuklatilgan vazifalar va berilgan vakolatlar doirasida qabul qilingan qarorlari, ko'rsatmalari barcha davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Farmonda belgilangan choralar Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi salomatligini muhofaza qilish va yashash uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Yana bir sabablardan biri bu mashinalarning sonidagi doimiy o'sish hisoblanadi. Ulardan chiqadigan gaz ham havodagi o'zgarishlarga sababchi hisoblanadi. Ayniqsa, shahar hududlarda shaxsiy transportdan foydalanish darajasi yuqori va bu nafaqat havoga, balki tirbandliklarga ham olib keladi. Shu sababdan hozirda yurtimizda jamoat transportlaridan ko'proq foydalanishlari uchun aholiga hamyonbop xizmatlar ko'rsatilmoqda va bu jarayon yurtimiz bo'ylab keng yoyilmoqda. Bundan asosiy maqsad aholini ko'proq jamoat transportlarida yurishga



undash va bu orqali tirbandlikni, avtohalokatlar va havodagi salbiy o'zgarishlarning oldini olish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, shahar hududlarida havoning ko'p ifloslanishiga asosiy sabab bu zavod va korxonalar sonining ko'pligi, avtomabillar sonidagi o'sish va obi-havodagi keskin o'zgarishlardir. Obi-havodagi o'zgarishlarning oldini olish qo'limizdan kelmasada, dastlabki ikkitasini bartaraf etishga qodirmiz. Fabrikalar faoliyatini vaqtinchalik cheklash, yashil maydonlar sonini ko'paytirish va jamoat transportlari orqali aholi ehtiyojini to'liq qondirish orqali biz havodagi salbiy o'zgarishlarni maksimal darajada kamaytirishimiz mumkin bo'ladi. Bu yo'l orqali biz nafaqat tabiatni, balki o'z sog'lig'imizni ham saqlab qolgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/news/2025/11/27/toshkentda-havoni-ifloslantirayotgan-15-obektda-qurilish-ishlari-toxtatildi>
2. Umarqulovna M. X. et al. ATMOSFERA IFLOSLANISHI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 55. – №. 3. – С. 198-202.
3. Tadjimatovna I. D. ATMOSFERANING IFLOSLANISHI VA UNING HUDUDIY KO'RINISHLARI //Modern education and development. – 2025. – Т. 39. – №. 1. – С. 34-38.
4. Qalandarova G. D., Amatboyeva O. Z. Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish //South Aral Region Medical Journal. – 2025. – Т. 1. – №. Maxsus son. – С. 32-33.
5. Sayfiddinov S. H., Musayeva Z., Yormamatov A. HAVO MUHITINING GIGIYENIK AHAMIYATI //ADVANCES IN RESEARCH AND INNOVATION SOLUTIONS. – 2026. – Т. 4. – №. 1. – С. 17-24.